

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KITOBXONLIKNI OMMALASHTIRISH METODIKASI

Xamedova Nilufar Azimovna p.f.n,dotsent

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Ko'palova Zumrad Quvondiqovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

M.Sc.Theory and Methods of Primary education

Annotatsiya: Mamlakatimizda olib borilayotgan kitobxonlikni rivojlantirish yo'llari, kitob o'qish madaniyatini shakllantirishda pedagogikaning o'rni.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati, kitob o'qishni qiziqtirish yo'llari.

Аннотация: Пути развития чтения в нашей стране, роль педагогики в формировании культуры чтения.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, способы сделать чтение интересным.

Annotation: Ways to develop reading in our country, the role of pedagogy in the formation of a culture of reading.

Keywords: reading, reading culture, ways to make reading interesting.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi PK-32-71-son qarori asosida, yurtimizning barcha ta'lim sohasida, kitobxonlikni rivojlantirish asosida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda dastlab, yurtimiz yoshlarini kitobxonlikka jalb qilish ularning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida, kitobxonlik bo'yicha tanlovlar o'tkazishni va unga jalb qilish ishlarini amalga oshirdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Bugun bitta kitob o'qigan bola, ertaga o'nta televizor ko'rib o'tirgan bolani boshqaradi" - deydi. Bu so'zlarning zamirida kitobning qay darajada bola ongini, tafakkurini rivojlantirishi va yuksaklarga eltuvchi kuch ekanligini anglashimiz mumkin.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz merosiga, urf-odatlarimizga nazar soladigan bo'lsak, ular ichida eng qadimiy va noyob sanaladigan buyuk meros bu - kitob bo'lib, ayniqsa, kitob meros va urf-odatlarimizni o'zida mujassamlashtiradigan, insonlarni ezigulikka chorlaydigan noyob bilim manbai ekanligi shak-shubhasiz tilga

olinadi. Qadriyatlar haqida gapirganimizda ,avvallari yig'ilib davralarda kitoblar o'qilar, buyuk shoirlarning ota-onalari-yu, buvijon-bobojonlari ertaklar aytib berganlarini eslasak arziydi. Shu o'rinda Hamid Olimjonning "Bolalik kunlarimda, uyqusiz tunlarimda..." she'rini yodga olmasdan ilojimiz yo'q. Bu she'rni o'qir ekanmiz, yoshligimizga nazar solib, o'sha damlar-u, o'zi uchar gilamlar bir on xayolimizni o'g'irlyaydi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastudan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan Abu Rayhon Beruniyigacha, Jaloliddin Rumiyan Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan Gulhaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, asrlar o'tsada ahamiyatini yo'qotmaydigan kashfiyotlari kitob orqali ro'y berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan o'rganilishi, ularga takror-takror murojaat qilishning asosiy sababi ham kitoblar tufaylidir. Kitobga qiziqish, kitob haqidagi tasavvurlar bolaga o'yin faoliyatidan boshlab singdirib boriladi. Dastlab ularga ota-onalar tomonidan qisqa mazmunda ertaklar o'qib berish orqali, badiiy obrazlar go'zalligini his etib tarbiyalanib boradi. Ana shu dastlabki uchrashuv bolaning o'quvchilik davrdagi ma'naviy hayotining barcha sohalari, ya'ni mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, bola hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Demak, bolani kitobga qiziqtirish unda kitobxonlikni shakllantirish dastlab oiladan boshlanar ekan. Ota-ona bolaga qiziqarli, uni xayolot olamiga yetaklaydigan ertak va rivoyatlarni mutolaa qilib berar ekan, bolada mardlik, jasurlik, irodalilik, birdamlilik, hamjihatlik, mehr va muhabbat, ezgulik xislatlari mukammal shakllanib boradi. Bu jarayon bolaga ota-ona tomonidan maktabga ilk qadam qo'ygungacha davom ettirilib, boshlang'ich sinfga kelgandan keyin esa o'zi kitoblarni mutolaa qilishga harakat qila boshlaydi. Oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi o'quvchining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirib borishi, bolada kitob o'qish ishtiyoqini uyg'otishi kerak.

Bolaning kitob o'qishga ishtiyoqini shakllantirishda ota-ona kitob tanlashda quyidagilarni inobatga olishi zarur:

- kitobning bola yoshiga mos kelishi;
- kitobni bolaning xarakteriga qarab tanlash;
- kitobning bolaga o'zi qiziqadigan kasbni tanlashda turtki bo'lishi;
- kitobning mazmuniga ahamiyat berishi;
- kitobning qanday tilda yozilganligini e'tiborga olish.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-ona kitob tanlashda e'tiborga olishi va ahamiyat berishi talab qilinadi. Bola yoshi ulg'aygan sari uning dunyoqarashi, o'qigan kitoblari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan innovatsiyalari ta'sirida kengayib boradi. Kitob o'qishga qiziqtirishda ota-ona eng dastlabki qadamni qo'yishi kerak.

Bolaga maktabgacha boʻlgan davrda, bolaning qiziqishlariga qarab kitobni oʻqib berib unga mehr uygʻotsa, kitobning nima ekanligini, uning sir-sinoatlari haqida maʼlumot bersa, bolaning kitobga qiziqishi kenggayib kitob oʻqishga ishtiyoqi shakllanib boradi. Oʻquvchining qiziqishini muntazam ravishda nazoratga olib, unga kitob oʻqishga imkon yaratib berish, uni qoʻllab-quvvatlash orqali oʻquvchida kitob oʻqish ishtiyoqi yanada kuchayib, kitobxon oʻquvchiga aylanib borishi shubhasiz. Kitob oʻqish-inson tafakkurining ozuqasidir. Kitobxonlik bilan muntazam shugʻullanib borish oʻquvchida boshqa predmetlarni ham oʻzlashtirishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Xullas, hozirgi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanayotgan bu davrida bola ongini qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash va rivojlantirish uchun albatta ularda kitobga boʻlgan mehrni yanada kuchaytirishimiz maqsadga muvofiqdir. Soʻzim soʻnggida Abu Rayhon Beruniyning ushbu soʻzlarini qayd etib oʻtishni lozim topdim: “ Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining oʻrnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagacha koʻtariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod oʻzidan keyin kelayotgan, oʻzidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatga avlodga yetkazib beradi”.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: «Gʻafur Gʻulom», 2017. – 92 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida. Xalq soʻzi, 2017 yil 14 sentiyabr. – № 184

3. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari “ Buxoro 2020 №248

3. www.ziyonet.uz.